

YASHIL

**IQTISODIYOT
va
TARAQQIYOT**

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik,
ilmiy, ommabop jurnal*



**"AGRAR IQTISODIYOTNI BARQAROR
RIVOJLANTIRISHDA BUXGALTERIYA HISOBİ,
IQTISODIY TAHLIL VA AUDITNING ROLI HAMDA
ISTIQBOLDAGI VAZIFALAR" MAVZUSIDAGI
XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA**

MAXSUS SON / №5

BASE



ULRICHSWEB™
GLOBAL SERIALS DIRECTORY



OpenAIRE



OPEN ACCESS

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

ROAD



Crossref

ISSN

INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE



Academic
Resource
Index
ResearchBib



74-91 xalqaro daraja
ISSN: 2992-8982



2025-yil 17-18 aprel

**SAMARQAND DAVLAT VETERINARIYA
MEDITSINASI, CHORVACHILIK VA
BIOTEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI**





IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Elektron nashr. 479 sahifa.

E'lon qilishga 2025-yil 1-aprelda ruxsat etildi.

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoiraz Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldix'o'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongirاتبay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Viktorovna, Candidate of Economic Sciences (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilkhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher

08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 Makroiqtisodiyot
08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 Ekonometrika va statistika
08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 Marketing
08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 Menejment
08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 28-fevraldagi
333/5-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

1-SEKSIYA: BUXGALTERIYA HISOBI, IQTISODIY TAHLIL VA AUDITNI XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI.....	12
SUT YO'NALISHIDAGI QORAMOLCHILIKDA ISHLAB CHIQRISH XARAJATLARI HISOBI VA MAHSULOT TANNARXINI HISOBLASH USULLARINI TAKOMILLASHTIRISH	13
Alikulov Abdimo'min Ismatovich, Karimov Ikrom, Abduganieva Dildora	
MEHNAT HAQI BO'YICHA MUOMALALARDA XATO, FIRIBGARLIK VA NOQONUNIY AMALLARNI SUD BUXGALTERIYA EKSPERTIZASI USULLARINI TAKOMILLASHTIRISH	17
Xasanov Baxodir Akramovich	
G'ALLACHILIK KLASSTERINING TASHKILY MEZONLARINI SHAKLLANTIRISH	20
Dusmuratov Radjabbay Davlatbaevich, Ilmuratov Shavkat Maxsumovich	
KORXONA TOVAR-MODDIY ZAXIRALARI QADRSIZLANISHI AUDITINING METODOLOGIK ASOSLARI	24
Urazov Komil Baxramovich, To'rayeva Farida Rustamovna	
AGROKLASTERLAR ICHKI SOTISH JARAYONIDA TRANSFERT BAHOLARNI BELGILASH USULLARINI TAKOMILLASHTIRISH	28
Eshmuradov Ulug'bek Tashmuratovich	
KONSOLIDASIYALASHGAN MOLIVAVIY HISOBOTLARNI TUZISHNING BUGUNGI KUNDAGI ZARURATI.....	34
Avazov Ilxom Ravshanovich	
MOLIVAVIY HISOBOTNING BARQARORLIK STANDARTLARI	37
Kurbanov Ziyat Niyazovich	
ВВЕДЕНИЯ БУХГАЛТЕРСКОГО УЧЕТА ЭКОЛОГИЧЕСКИХ ЗАТРАТ В СЕЛЬСКОХОЗЯЙСТВЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЯХ.....	41
Серекбаева Сауле Габитовна, Эшмуратов Улугбек Ташмуратович	
TOVAR-MODDIY QIYMATLIKLAR AUDITINI AUDITNING XALQARO STANDARTLARI ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI	46
Raximova Umida Rabbimovna	
AGROIQTISODIYOTNI INNOVATSION RIVOJLANTIRISH SHAROITIDA JORIY AKTIVLAR INVENTARIZATSIYASINI O'TKAZISH VA UNING TAHLILI USULLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	49
Ruziyeva Dilafruz Faxriddinovna	
INVESTITSIYAVIY JOZIBADORLIKNI OSHIRISHDA INVESTITSIYA MUHITI VA UNI SHAKLLANTIRADIGAN OMILLAR	51
Abduganiyev Jahongir Behzod o'g'li, Eshmuradov Ulug'bek Tashmuratovich	
QISHLOQ XO'JALIK KORXONALARIDA ASOSIY VOSITALAR HISOBINING XUSUSIYATLARI.....	55
A.I.Alikulov, M.Sh.Baxriyev, M.N. Fayzullaev	
G'ALLACHILIK KLASSTERLARIDA BUXGALTERIYA HISOBINING XUSUSIYATLARI VA XORIJ TAJRIBALARI ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH	59
Yuldashev Sherali Xaitovich, Xusanov Jaloliddin Xolmamat o'g'li, Tolibov Azamatjon Olimovich	
STRATEGIES FOR ADVANCING THE STANDARDS RELATED TO ACCOUNTING FOR FOREIGN EXCHANGE RATE FLUCTUATIONS IN UZBEKISTAN	63
Urazov K.B., Umarova Sh.K.	



BUXGALTERIYA HISOBINING XALQARO STANDARTLARI ASOSIDA LOGISTIKA XARAJATLARI HISOB VA HISOBOTLARINI Yuritishni Takomillashtirish.....	68
Nasim Boboev, Yorbekova Dilorom Muxammadqulovna, Umidullo Fayzullaev	
ASPECTS OF ACCOUNTING CONFIGURATION AND ORGANIZATION IN MODERN ECONOMIC SETTINGS.....	73
Hamdamova Guljahon Ablokulovna, Bahodirov Qosimxon Nasimxon o'g'li, Abdixalimov Nodirbek Abdumutal o'g'li	
ФИНАНСОВАЯ ГРАМОТНОСТЬ КЛИЕНТОВ: АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ В БАНКОВСКОЙ ПРАКТИКЕ	77
Нарзиева Гузаль Бахтиёровна	
BARQAROR O'SISH MAQSADLARIGA ERISHISHDA SIRKULAR IQTISODIYOTNING AHAMIYATI VA UNI MOLİYALASHTIRISH MASALALARI	81
Latipova Shaxnoza Maxmudovna	
INNOVATION IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHDA INVESTITSİYALARNING AHAMIYATI.....	85
Raximova Umida Rabbimovna, Elmurodova Dilnoza Farxodovna, Rasulova Sevinch Shodiyor qizi	
THE ROLE OF INTERNAL AND EXTERNAL AUDIT IN STRENGTHENING CORPORATE GOVERNANCE IN UZBEKISTAN	88
Urazov Komil Bahromovich, Oblokulov Sukhrob Usmon o'g'li	
QISHLOQ XO'JALIGI KORXONALARIDA BOSHQARUV HISOB (O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MISOLIDA).....	90
Hamdamova Guljaxon Ablokulovna, Shakaraliyev Avazbek Xasan O'g'li, Daniyrov Xurshid Baxtiyorovich	
АДАПТАЦИЯ ФИНАНСОВОГО УЧЕТА МНОГОПРОФИЛЬНЫХ ФЕРМЕРСКИХ ХОЗЯЙСТВ К МЕЖДУНАРОДНЫМ СТАНДАРТАМ: ПРОБЛЕМЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ	93
Ёрбекова Дилором Мухаммадқулловна, Асомиддинов Хусан Асомиддин угли, Мамадиёров Хусниддин Хасанович	
QISHLOQ XO'JALIGI KORXONALARIDA INVENTARIZATSIYA NATIJALARI TAHLILINI TAKOMILLASHTIRISH XUSUSIYATLARI.....	97
Ruziyeva Dilafruz Faxriddinova	
ASALARICHILIK XO'JALIKLARIDA BIZNES JARAYONLARI HISOBINING NORMATIV-HUQUQIY ASOSLARI	100
Ishturdiyev Hasan Abdigapparovich	
QISHLOQ XO'JALIK KORXONALARIDA ICHKI AUDITNI RIVOJLANTIRISHNING DOLZARB MASALALARI	107
Tilabov Shohruh Baxriddin o'g'li	
IQTISODIYOTNI JADAL RIVOJLANTIRISHGA QARATILGAN ISLOHOTLAR SHAROITIDA G'ALLACHILIK KLASTERLARINI TASHKIL ETISHNING ZARURATI, MOHIYATI VA ISTIQBOLLARI.....	111
Yuldashev Sherali Xaitovich, Pardaboyev Asror O'lmas o'g'li	
AGROKLASTERLARDA KAPITAL QO'YILMALAR HISOBINI MOLİYAVIY HISOBOTNING XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH	115
Abdushukurov Xondamir Botiraliyevich, Eshmuradov Ulug'bek Tashmuratovich	
BANK SEKTORINING DOLZARB MUAMMOLARI VA ULARNI HAL QILISH YO'LLARI.....	120
Narziyeva Guzal Baxtiyorovna, Toshmurodova Dilbar Muzaffar qizi, Zarmaxmatov Nomozjon Boxodir o'g'li	
THE STATUS OF ACCOUNTING TODAY	123
Hamdamova Guljahon Ablokulovna, O'ktamov Nuriddin Abdumalik O'g'li, Raxmatullayev Abdullajon Murodullo O'g'li	
CHANGES IN THE STRUCTURE OF AGRICULTURE OF UZBEKISTAN AND THEIR ECONOMIC- STATISTICAL ANALYSIS.....	126
Yorbekova Dilorom Muxammadkulovna, Raxmatullayev Abdullajon Murodullo ugli	



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA BUXGALTERIYA HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH VA XALQARO STANDARTLARGA MOSLASHTIRISH.....	130
Raximova Umida Rabbimovna, Abdurahmanova Jasmina Baxtiyorovna	
KORXONALARDA XARAJATLAR HISOBINING ZAMONAVIY USULLARI.....	133
Tilabov Shohruh Baxriddin o'g'li	
QISHLOQ XO'JALIK KORXONALARIDA ISHLAB CHIQARISH XARAJATLARI HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH JARAYONLARI.....	137
Ishturdiyev Hasan Abdigapparovich, Rasulberdiyev G'ayratjon Sharof o'g'li, Xusanov Shohjahon Shavxidin o'g'li, Rustamova Dildora Dunyodjon qizi	
BUDJET HISOBINING IQTISODIYOTIMIZDA TUTGAN O'RNI VA UNING O'ZIGA XOS JIHATLARI.....	143
Tuxtayev Zafar Mamatkulovich	
XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA ASOSIY VOSITALARNING TASHKILY-USLUBIY ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI.....	147
Fayzullayev Murodbek Nematullayevich, Alikulov Abdimo'min Ismatovich	
2-SEKSIYA: INNOVATSION IQTISODIYOT SHAROITIDA AGRAR IQTISODIYOTNI BARQAROR RIVOJLANTIRISHNING DOLZARB MUAMMOLARI VA UNING YECHIMLARI.....151	
KAMBAG'ALLIK MUAMMOSI, UNI BARTARAF ETISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI VA HOZIRGI HOLATI	152
Kazakova Zulayho Salaxiddinovna, Aslonov Xotamjon Sharifboy o'g'li, Esirgapov Diyor Akramovich	
BULUTLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA SOLIQ HISOBOTI TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH.....	157
Uralov Baxtiyor Maxmudovich	
"YASHIL IQTISODIYOT"GA O'TISH ZARURIYATI VA UNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	162
Olmasov Umidjon G'iyosovich, Salamov Ibroxim, Nurmanov Sherzod Xujayarovich	
INNOVATSION IQTISODIYOT SHAROITIDA CHORVACHILIK SAMARADORLIGINI OSHIRISH IMKONIYATLARI.....	168
Kudratov Rizo Turdibayevich	
INNOVATSION IQTISODIYOT SHAROITIDA AGRAR IQTISODIYOTNI BARQAROR RIVOJLANTIRISHNING DOLZARB MUAMMOLARI VA UNING YECHIMLARI.....	172
Ruziyeva Dilafruz Faxriddinovna	
"OZIQ-OVQAT ISROFI VA U BILAN KURASHISH STRATEGIYALARI"	176
Kazakova Zulayho Salaxiddinovna, Abduqahhorov Najmiddin Sayfiddin o'g'li, Vasliddinov Behruz Vasliddinovich	
INNOVATSION IQTISODIYOT SHAROITIDA AHOLINING IQTISODIY SAVODXONLIGINI OSHIRISH MUAMMOLARI VA YECHIMLARI.....	182
Ochilova Mohigul Toshtemir qizi	
INNOVATSION IQTISODIYOT SHAROITIDA AGRAR IQTISODIYOTNI BARQAROR RIVOJLANTIRISHNING DOLZARB MUAMMOLARI VA UNING YECHIMLARI.....	185
Farhod Mahmudovich Tirkashev, Azimjon Baxodirov, Ilhom Mamatqulov	
XIZMAT KO'RSATISH SOHASINI RIVOJLANTIRISH ORQALI QISHLOQ JOYLARIDA AHOLI BANDLIGINI OSHIRISH	190
Xamdamova Nasiba Ablakulovna, Boyjigitov Kamronbekmirzo Sobirjon o'g'li, Baxriddinov Abubakir Oloviddin o'g'li	
IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHDA KICHIK BIZNESNING ROLINI OSHIRISH.....	195
Ulmasova Oygul Baxtiyorovna, Ollonazarova Mavlyuda Shixnazar qizi	
XIZMAT KO'RSATISHDA ELEKTRON TIJORATNI SAMARADORLIGINI OSHIRISH	199
Xudoyberdiyeva Marifat Umarovna, Safarova Baxora Aslamovna, Bozorova Beg'ubor Tolib qizi, Murodqulova Mexrangiz Dilshodovna, Avazboyeva Ruxshona Azizovna	



CHORVACHILIKDA VETERINARIYA XIZMATLARINING IQTISODIY SAMARADORLIKKA TA'SIRI.....	202
Eshanqulov Sirojiddin Xakimovich	
O'ZBEKISTONDA LOGISTIK MARKAZLARNI RIVOJLANTIRISHNING HOLATI VA ISTIQBOLLARI	206
Kazakova Zulayho Salaxiddinovna, Tursunaliyev Abdulaziz Shokirjon o'g'li, Toshniyozov Anvarbek Alisher o'g'li	
QISHLOQ XO'JALIGINI RAQAMLASHTIRISH: KELAJAK TEXNOLOGIYALARI	211
Farhod Mahmudovich Tirkashev, Bilolbek Quvonchbek o'g'li Boytemirov	
XIZMATLAR SOHASINI RIVOJLANTIRISHNING MUHIM OMILLARI	215
Xamdamova Nasiba Ablakulovna, Iymonqulova Mavluda O'rozali qizi, Raxmonberdiyev Sherzod Alisher o'g'li	
ЗАНЯТОСТЬ И СОКРОЩЕНИЕ БЕЗРОБОТИЦЫ В УСЛОВИЯХ ЗЕЛЕННОЙ ЭКОНОМИКИ	219
Назарова М.Ш., Бердикулов Р.А.	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARI SAVDOSINING RIVOJLANISH EVOLYUTSIYASI.....	226
Xudoyberdiyeva Marifat Umarovna	
“YASHIL IQTISODIYOT”NI RIVOJLANTIRISH YO'NALISHLARIDA INTELLEKTUAL MULKNING AHAMIYATI	230
Farhod Mahmudovich Tirkashev, Dilnurabonu Faruxovna Amrillayeva, Muqaddas Muxamadaliyevna Xusenova	
UZUMCHILIK TARMOG'IDA IQTISODIY SAMARADORLIKKA ERISHISHDA SUVDAN TEJAMKORLIK BILAN FOYDALANISHNING IMKONIYATLARI.....	235
Salamov Ibroxim, Jonibekov Faxriddin Beknazarovich	
QISHLOQ HUDUDIDA KICHIK BIZNES SOHASINI RIVOJLANTIRISH	239
Ulmasova Oygul Baxtiyorovna	
BOZOR IQTISODIYOTIDA MULKCHILIK MUNOSABATLARINI AMALGA OSHIRISH MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH.....	243
Farhod Mahmudovich Tirkashev, Muqaddas Muxamadaliyevna Xusenova, Dilnurabonu Faruxovna Amrillayeva	
GLOBAL BIZNESDA STRATEGIK YONDASHUVLAR	247
Xudoyberdiyeva Marifat Umarovna, Umrzoqov Adxam, Mirzabayev Shoxruhjon Orzumurodovich, Saidmurodov Sardor Mirsalohovich	
TADBIRKORLIKNI DAVLAT TOMONIDAN QO'LLAB-QUVATLASH TIZIMI TAHLILI	251
Kazakova Zulayho Salaxiddinovna, Ibragimov Jahongir Ilhom o'g'li, IbragimovBotir Uktamboy o'g'li	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING TASHQI SAVDO SIYOSATI.....	257
Farhod Mahmudovich Tirkashev, Inomjon Rustam o'g'li Xo'jaqulov, Sherzod Mexriddinovich Raxmatullayev	
THE SOCIO-ECONOMIC IMPORTANCE OF ACCELERATED DEVELOPMENT OF THE SERVICE SECTOR IN A MODERN MARKET ECONOMY	262
Khamdamova Nasiba Ablakulovna, Rasulberdiyev G'ayratjon Sharof o'g'li, Ro'zmatov Feruzbek Inoyat o'g'li	
“YASHIL IQTISODIYOT” TAMOYILLARINI AMALGA OSHIRISHDAGI ASOSIY VAZIFALAR	265
Xudoyberdiyev.U.X., Xudoyberdiyeva Marifat Umarovna	
YOSHLAR ORASIDA KICHIK BIZNES SOHASINI RIVOJLANTIRISH	268
Ulmasova Oygul Baxtiyorovna, Ollonazarova Mavlyuda Shixnazar qizi	
O'TISH DAVRIDAGI IQTISODIYOTDA KICHIK KORXONALARNING LOGISTIKA TIZIMI	273
Farhod Mahmudovich Tirkashev, Islomjon Jamshedovich Jamshedov	
GLOBAL ISISH SABABLARI VA UNING IQTISODIY OQIBATLARI.....	278
Ochilova Mohigul Toshtemir qizi, Boyjigitov Kamronbekmirzo Sobirjon o'g'li, Mirzabayev Shoxruhjon Orzumurodovich, Saidmurodov Sardor Mirsalohovich	
SERVIS XIZMATI KO'RSATISHDA CHO'L-YAYLOV CHORVACHILIGI MAHSULOTLARNI QAYTA ISHLASH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH.....	282
Nurmanov Sherzod Xujayarovich, Hotamov Adhamjon Asqarjon o'g'li	



AGROTURIZMNING YASHIL IQTISODIYOTDAGI O'RNI VA AHAMIYATI: O'ZBEKISTON UCHUN XORIJIY TAJRIBA ASOSIDA TAKLIFLAR.....	287
Ergashboyev Minghojiddin Jasurbek o'g'li, Yuldoshev Husniddin To'liqin o'g'li, Eshmuradov Ulug'bek Tashmuratovich	
“YASHIL” IQTISODIYOTGA O'TISH ORQALI IQTISODIY SAMARADORLIKNI OSHIRISH YO'NALISHLARI	293
Kudratov Rizo Turdibayevich	
PARRANDA TUXUMINI YETISHTIRISHDA EKOLOGIK MUHITNING IQTISODIY SAMARADORLIKNI OSHIRISHGA TA'SIRI.....	297
Vaslidinov Bexruz Vaslidinovich, Salamov Ibrohim, Nurmanov Sherzod Xujayarovich	
TIJORAT BANKLARIDA INTELLEKTUAL MULKDAN FOYDALANISH XUSUSIYATLARI.....	302
Farhod Mahmudovich Tirkashev, Sherzod Mexriddinovich Raxmatullayev, Inomjon Rustam o'g'li Xo'jaqulov	
CHO'L-YAYLOV CHORVACHILIGI MAHSULOTLARI SOTISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH VA TARMOQNI MODERINIZATSIYALASH	308
Nurmanov Sherzod Xujayarovich, Hotamov Adhamjon Asqarjon o'g'li	
IQTISODIY TENGSIZLIK VA U BILAN KURASHISH USULLARI.....	313
Ochilova Mohigul Toshtemir qizi, Mahammadahliyev Muhammadkarim, Abduzoirov Sarvarbek Sanjar o'g'li, Jumayev Azamat Uchqun o'g'li	
“YASHIL” IQTISODIYOT VA UNING O'ZBEKISTONDA BANDLIKKA TA'SIRI.....	316
Nazarova M.Sh., Berdiqulov R.A.	
SAMARQAND VILOYATIDA AGROTURIZMNI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI.....	322
Jo'raqul Rahmiddin o'g'li Yaxshiliqo, Farhod Mahmudovich Tirkashev	
O'ZBEKISTONDA “YASHIL” IQTISODIYOTNI SHAKLLANTIRISH, RIVOJLANTIRISH VAZIFALARI VA BOSQICHLARI	327
Maryam Sharipovna Nazarova, Farhod Mahmudovich Tirkashev, Azimjon Baxodirov Ilhom Mamatqulov, Ilhom Mamatqulov	
QISHLOQDA YASHOVCHI AYOLLAR – MEHNAT RESURSLARINING ISHSIZLIK MASALALARI	332
Murtazayev Olim, Murtazayev Akbarxon Olimovich	
XXI-ASRDA SHAKLLANGAN YANGI IQTISODIYOTLAR TARKIBIDA KREATIV IQTISODIYOT PRINSIPLARI VA TURLARINING NAZARIY MASALALARI.....	336
Mamayunus Pardayev, Obid Pardayev	
ISHSIZLIKNING ZAMONAVIY SHAKLLARI VA BANDLIKNI OSHIRISHDA STRATEGIK YONDASHUVLAR.....	340
Navruzbek Azimjonovich Rajabov, Safarova Bahora Aslamovna	
INNOVATSION IQTISODIYOT SHAROITIDA MEHNAT BOZORI TRANSFORMATSIYASINING YANGI TALABLAR DOIRASIDA TAKOMILLASHUVI	344
Pardayev Mamayunus Qarshibayevich, Pardayeva Ozoda Mamayunusovna, Babanazarova Sevara Abdunazarovna	
YANGI O'ZBEKISTON IQTISODIYOTIDA XIZMAT KO'RSATISH SOHASINI RIVOJLANTIRISH ORQALI KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISH MUHIM VA DOLZARB MASALALARDAN BIRIDIR	348
Mirzayev Qulmamat Djonuzokovich, Mirzayev A	
QISHLOQ XO'JALIGIDA AGROTURIZM SAMARADORLIGINI OSHIRISH IMKONIYATLARI VA ISTIQBOLLARI.....	352
Ergashboyev Minghojiddin Jasurbek o'g'li, Kudratov Rizo Turdibayevich	
XO'JALIK YURITUVCHI SubyektLARDA INSON RESURSLARINI BAHOLASH VA TAHLILIGA NAZARIY YONDASHUVLAR	358
Pardayev Mamayunus Qarshibayevich, Pardayeva Ozoda Mamayunusova, Babanazarova Sevara Abdunazarovna, Mamayunusov Temur Olimovich	



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA EKOLOGIK TA'LIM VA UNI RIVOJLANTIRISH CHORA-TADBIRLARI.....	362
Ochilova Mohigul Toshtemir qizi, Abduzoirov Sarvarbek Sanjar o'g'li, Solayev Sanjar Hamdam o'g'li	
MEHNAT BOZORI TRANSFORMATSIYASIDA ZAMONAVIY TALABLARDAN KELIB CHIQUADIGAN YONDOSHUVLAR.....	365
Pardayev Mamayunus Qarshibayevich, Pardayeva Ozoda Mamayunusovna, Mamayunusov Temur Olimovich	
3-SEKSIYA: QISHLOQ XO'JALIGINI RAQAMLASHTIRISH: KELAJAK TEXNOLOGIYALARI.....	369
ЦИФРОВИЗАЦИЯ СЕЛЬСКОГО ХОЗЯЙСТВА: ТЕХНОЛОГИИ БУДУЩЕГО.....	370
Мухамедиева Дилноз Тулкуновна, Сафарова Лола Улмасовна	
IQTISODIY-MATEMATIK MODELLASHTIRISH: MEVA-SABZAVOTCHILIK KLASSTERLARI EKIN MAYDONLARINI TAKOMILLASHTIRISH	374
Urdushev Xamrakul, Sirojiddin Eshanqulov	
BOG'DORCHILIK TARMOG'INING HOLATI VA RIVOJLANTIRISH TENDENSIYALARINING EKONOMETRIK TAHLILI	379
Akbarov Husan O'zbekxonovich, Urdushev Xamrakul, Jalilov Shoxrux Zafar o'g'li	
EMOTIONAL INTELLIGENCE IN HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS: IMPORTANCE, DEVELOPMENT AND IMPLEMENTATION	383
Koshkaldal Iryna, Celms Armands, Gurskiene Virginija, Dombrovska Olena	
О МЕТОДИКЕ ОБУЧЕНИЯ УЧАЩИХСЯ РЕШЕНИЮ МАТЕМАТИЧЕСКИХ ГОЛОВОЛОМОК НА УРОКАХ МАТЕМАТИКИ	386
Актамова Васила Укатамовна, Ahtamova Z.U., Muradova Mexribon Sobirovna	
FIZIKA FANINING O'ZBEKISTON AGRAR IQTISODIYOTIDAGI DOLZARB MUAMMOLARINI HAL ETISHDAGI POTENTIALSIALI.....	393
R. Berdiyev, U. E. Nurimov, B. U. Amonov	
FIZIKA FANINI INTERNET TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANIB O'QITISH	397
Raximov O., Mamatkulov	
CHORVACHILIK XO'JALIKLARIDA ISHLAB CHIQUARISHNI TASHKIL ETISHDA KO'P OMILLI OPTIMALLASHTIRISH USULLARI.....	401
Mavlyanov Majid Tuychievich	
AYRIM IQTISODIY MASALALARNI YECHISHDA TAQRIBIY SONLARNING AHAMIYATI.....	406
Otoboyeva Aziza Shakirovna, Bozorboyev Komiljon Shuxrat o'g'li, Eshdaviatov Samandar Otabek o'g'li, G'aniyev Anvar Maqsud o'g'li	
ПРИМЕНЕНИЕ КОМПЛЕКСНЫХ ЧИСЕЛ В ПРОЦЕССЕ ОБУЧЕНИЯ ГЕОМЕТРИИ	410
Актамова Васила Укатамовна, Ahtamova Umida Uktamovna, Mayramaliyeva Dilbar Eldorovna	
MEVA VA SABZOVOTLARNI FIZIKAVIY USULDA QAYTA ISHLASH TEXNALOGIYASI.....	417
N.Mamatkulov., M.Raxmatov., R.Berdiyev	
BEGONA O'TLAR VA ZARARKUNANDALARGA QARSHI KURASHDA ROBOTOTEXNIKA	421
Ravshanov Sanjar Tolibjonovich, Otoboyeva Aziza Shakirovna, Usanov Yoqub Dilmurod o'g'li	
AQLLI SUG'ORISH TIZIMLARI YORDAMIDA SUV RESURSLARIDAN SAMARALI FOYDALANISH: O'ZBEKISTON TAJRIBASI.....	425
Sulaymonov Mirobid Abdullolikhovich	
SMART TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA QISHLOQ XO'JALIGI MAHSULOTLARINI SOTISH: BLOCKCHAIN TEXNOLOGIYASINING QO'LLANILISHI	342
Ahtamova Vasila Uktamovna	



RAQAMLI TAHLIL YORDAMIDA O'SIMLIKLAR UCHUN OPTIMAL O'SISH SHAROITLARINI YARATISH	436
Ravshanov Sanjar Tolibjonovich, Otoboyeva Aziza Shakirovna, Jumayev Azamat Uchqun o'g'li, Hamdullayev Jamoliddin Feruzxon o'g'li	
QISHLOQ XO'JALIGIDA RAQAMLI TEXNALOGIYALARDAN FOYDALANISH ISTIQBOLLARI	440
N.Mamatkulov, R.Aminov	
UY HAYVONLARINI RO'YXATDAN O'TKAZISHNING ZAMONAVIY USULLARI VA ULARNING QISHLOQ XO'JALIGIDAGI IJTIMOIIY VA IQTISODIY AHAMIYATI	443
Sulaymonov Mirobid Abduxolikovich, Usanov Rashid Sharofovich	
ISSIQXONALARNING REAL VAQT REJIMIDA BOSHQARUV MONITORING TIZIMINI ISHLAB CHIQISH, NAZORAT QILISH VA OPTIMALLASHTIRISH.....	448
Otoboyeva Aziza Shakirovna	
RAQAMLASHTIRISH VA EKOLOGIK INNOVATSIYALAR ORQALI O'ZBEKISTON QISHLOQ XO'JALIGIDA YASHIL IQTISODIYOTNI JORIY ETISH.....	454
Usanov Rashid Sharofovich	
ZARARKUNANDALAR TARQALISHINI BASHORAT QILISHDA SUN'IY INTELLEKT MODELLARI.	458
Ravshanov Sanjar Tolibjonovich, Otoboyeva Aziza Shakirovna	
QISHLOQ XO'JALIGI YERLARINI GEOMETRIK MODELLASHTIRISHNI AMALGA OSHIRISHNING AMALIY YONDASHUVI.....	462
Xaknazarova Xurshidabonu Kenjayevna	
FLUTTER ASOSIDAGI O'SIMLIKLARNI TANISH VA SOG'LOMLIGINI TAHLIL QILISH	467
Ravshanov Sanjar Tolibjonovich	
FERMERLAR UCHUN MOBIL ILOVALAR: AXBOROT, TAHLIL VA MASLAHATLAR.....	471
Aktamova Vasila Uktamovna, Axtamova Umida Uktamovna	
IOT VA AI INTEGRATSIYASI ORQALI SUVNI TEJASH.....	475
Raxmatullayeva Nozima Shodiqulovna	



AGROKLASTERLARDA KAPITAL QO'YILMALAR HISOBINI MOLIYAVIY HISOBOTNING XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH

Abdushukurov Xondamir Botiraliyevich
Iqtisodiyot fakulteti "Buxgalteriya hisob va audit"
ta'lim yo'nalishi 4-bosqich talabasi

Eshmuradov Ulug'bek Tashmuratovich
Samarqand davlat veterinariya meditsinasi,
chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti
"Buxgalteriya hisobi va audit" kafedrasini mudiri

Annotatsiya: Mazkur maqolada xo'jalik yurituvchi subyektlarda, jumladan, agroklastarlarda moliyaviy hisobotning xalqaro standartlar asosida kapital qo'yilmalar hisobini tashkil etishning hozirgi holati o'rganilib, uni takomillashtirish bo'yicha fikr-mulohazalar yuritilgan.

Kalit so'zlar: Kapital qo'yilmalar, investitsiyalar, aylanmadan tashqari aktivlarga kapital qo'yilmalar, 0800-schyotda aks ettirish, tugallanmagan qurilish, asosiy vositalarni xarid qilish.

Abstract: This article examines the current state of organization of capital investment accounting in economic entities, including agroclusters, based on international financial accounting standards, and comments on its improvement are made.

Key words: Capital investments, investments, capital investments in non-current assets, reflected on account 0800, construction in progress, acquisition of fixed assets

Аннотация: В статье рассматривается современное состояние учета капитальных вложений в хозяйствующих субъектах, в том числе агрокластерах, на основе международных стандартов финансовой отчетности, а также даются рекомендации по его совершенствованию.

Ключевые слова: Капитальные вложения, инвестиции, капитальные вложения во внеоборотные активы, отражение на счете 0800, незавершенное строительство, приобретение основных средств.

KIRISH

Kapital qo'yilmalarni hisobga olishning amaldagi tartibi sarflangan kapital xarajatlarni to'liq va ishonchli aks ettirish, loyihalarni moliyalashtirishga jalb etilgan mablag'larni aniq maqsadga yo'naltirish, qurilish ishlarini moliyalashtirishda mablag'lar taqchilligini bartaraf etish hamda qurilishi tugallangan obyektlarni foydalanishga o'z vaqtida topshirilganini ta'minlash imkonini beradi. Shuningdek, respublikamizda bu masalalar buxgalteriya hisobining xalqaro standartlari talablari darajasida ilmiy jihatdan to'liq hal etilmagan bo'lib, bu boradagi muammolarning zamonaviy yechimlarini batafsil qamrab olmaydi. Olib borilgan ilmiy tadqiqot natijalari mamlakatimizda agroklastarlarda kapital qo'yilmalar hisobini takomillashtirish o'zining shakllanish jarayonida ekanligi va uning nafaqat amaliy jihatlari, balki bir qator nazariy hamda uslubiy masalalari ham o'zining ijobiy yechimini kutayotganligini ko'rsatmoqda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Hozirgi kunda xo'jalik yurituvchi subyektlar, jumladan, agroklastarlarda amaliyotida va iqtisodiy adabiyotlarda "kapital qo'yilmalar", "investitsiyalar" va "aylanmadan tashqari aktivlarga kapital qo'yilmalar" kabi iqtisodiy atamalar keng qo'llanilmoqda. Mazkur atamalarning farqli jihatlari ajratish bo'yicha iqtisodchi olimlar o'rtasida munozaralar mavjud. Umuman olganda, bu atamalar korxona mulkini qurish, sotib olish, yangilash, kengaytirish va qayta ta'mirlash kabi ma'nolarni anglatadi. Ammo, ularning o'ziga xos qator farqli jihatlari mavjud. D.G'.G'ozibekov o'zining ilmiy tadqiqotlarida "kapital qo'yilma" va "investitsiya" atamalarining bir-



biridan farqli jihatlarini quyidagicha ajratadi: “Investitsiyalar” atamasi “kapital qo’yilma”, “investitsiyalarning mulkiy shakli”, “kapital”, “kredit” va boshqa atamalarga ko’ra kengroq tushuncha hisoblanadi.[2] Biz ham ushbu fikrga qo’shilamiz, investitsiyalarning qamrovi kengroq bo’lib, ular nafaqat qimmatli qog’ozlarni moliyalashtirish, balki asosiy vositalar, aylanma mablag’larga sarflangan mablag’larni ham o’z ichiga oladi. Iqtisodchi olim A.S.Sotivoldiyevning fikricha, “korxona tomonidan yangi qurilishga, asosiy vositalarni sotib olishga, rekonstruksiya, harakatdagi asosiy vositalarni kengaytirish va quvvatini texnik jihatdan qayta qurollantirishga sarflangan pul mablag’lar kapital qo’yilmalar hisoblanadi”.[5] V.F.Paliyning ta’rificha, “Kapital sarflar yoki kapital qo’yilmalar bu asosiy vositalar va boshqa uzoq muddatli foydalaniladigan aktivlarni sotib olish va qurish bilan bog’liq bo’lgan sarflardir”.[4] Mazkur fikrlarni O.Bobojonov va K.Jumaniyozovlar ham qo’llab-quvvatlashadi. Ularning yozishicha, “Uskunalarini ta’mirlash, ularga xizmat ko’rsatish, yoqilg’i sotib olish xarajatlari, ya’ni subyektlarning faoliyati uchun zarur bo’lgan barcha xarajatlar nokapital xarajatlarga yoki chiqimlarga kiritiladi, chunki ular ushbu hisobot davrida daromad olish uchun sarflangan xarajatlarni ifodalaydi”.[1] A.A.Karimov, J.E.Kurbanbayev, S.A.Jumanazarovlarning ta’kidlashicha, “Kapital qo’yilmalar – bu xo’jalikning takror ishlab chiqarishini kengaytirish hamda uning sifatini yaxshilashga yo’naltirilgan xarajatlar majmuidir”. Kapital qo’yilmalar hajmi korxonalarni qurish, kengaytirish, texnik qayta jihozlash va uning ishlab chiqarish quvvatlarini saqlash, shuningdek, ishlab chiqarish maqsadlaridagi asbob-uskuna, transport vositalari va boshqa asosiy fondlarni harid qilishning barcha moliyalashtirish manbalari hisobiga qilingan xarajatlarning umumiy summasiga nisbatan belgilanadi.[3] Bu ta’riflar kapital qo’yilmalar mohiyatini to’liq ifodalamaydi. Chunki, kapital xarajatlar faqatgina asosiy vositalarga nisbatan emas, balki nomoddiy aktivlarga nisbatan ham amalga oshirilishi mumkin. O’zbekiston Respublikasi buxgalteriya hisobining 21-sonli milliy standartiga muvofiq, “Kapital qo’yilmalar – korxonaning asosiy vositalar va nomoddiy aktivlarga investitsiyalari, shuningdek mahsuldor va ishchi hayvonlarning (qiymatidan qat’i nazar, korxonaning aylanma mablag’lariga kiruvchi parrandalar, quyonlar, asalarilar, qo’riqlovchi itlar, tajriba uchun mo’ljallangan hayvonlardan tashqari) asosiy podasini tashkil qilish bo’yicha xarajatlar...” hisoblanadi.[9] Olib borilgan tadqiqotlarning ko’rsatishicha, kapital sarflarga iqtisodchi olimlar tomonidan berilgan ta’riflar uning mohiyatini to’liq yoritib bera olmaydi. Chunki, mazkur ta’riflarda kapital qo’yilmalarning ayrim zamonaviy turlarining yaratilishi o’z ifodasini topmagan, ya’ni dasturiy ta’minot, savdo belgilari, mualliflik huquqlari kabi nomoddiy aktivlar qurilmaydi, sotib olinmaydi, ta’miratlanmaydi, balki yaratiladi. Bularga subyektning xodimlari tomonidan yaratilgan turli ishlanmalar, sanoat namunalari, ixtirolarni kiritish mumkin. Ayrim kapital ta’mir xarajatlari buxgalteriya hisobining konseptual asoslariga muvofiq kelmaydi. Chunki kapital ta’mir xarajatlari katta summani tashkil etib, ular asosiy vositani foydali muddatini oshiradi. Bu esa, kapital qo’yilmalarni barcha xususiyatlarini aks ettiradigan mukammallashgan ta’rifni keltirishni talab etadi. Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda kapital qo’yilmalarga quyidagicha ta’rif berish maqsadga muvofiqdir: “Kapital qo’yilmalar – asosiy vositalar va boshqa uzoq muddatli aktivlarni sotib olish, qurish, kapital ta’mirlash, kengaytirish hamda yaratish bilan bog’liq xarajatlar yig’indisidir.”¹.

TADQIQOT METODOLOGIYASI


Mavzuga oid respublikamizda qabul qilingan me’yoriy-huquqiy hujjatlar, buxgalteriya hisobining milliy va xalqaro standartlari, nizomlar, yo’riqnomalar, xorijsa va respublikamizda chop qilingan ilmiy ishlar, qishloq xo’jaligi korxonalarining hisob va hisobot ma’lumotlari maqolaning metodologik asoslarini tashkil etadi. Ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarishda qo’llaniladigan kuzatish, guruhlash, tahlil qilish va boshqa usullardan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Kapital qo’yilmalarni buxgalteriya hisobida hisobga olishda “Asosiy vositalar” nomli 5-son BHMS, “Kapital qurilish uchun pudrat shartnomalari” nomli 17-son BHMS va “Xo’jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy-xo’jalik faoliyati buxgalteriya hisobi schyotlari rejasi va ularni qo’llash bo’yicha yo’riqnoma” nomli 21-son BHMSdan foydalaniladi. Kapital qo’yilmalar va u bilan bog’liq barcha xarajatlarni buyurtmachi, ya’ni o’zi uchun quradigan va shu qurilishni mablag’ bilan ta’minlayotgan korxona hisobga olib boradi. Yangi korxona qurilayotganida qurilayotgan korxonaning ma’muriyati ana shunday tashkilot bo’ladi, amalda ishlab turganida esa kapital qurilish bo’limi orqali ish tutayotgan korxonaning o’zi ana shunday tashkilot bo’ladi. Kapital qo’yilmalarning hisobi amaldagi xarajatlar va smeta qiymati bo’yicha ularning turlari asosida umuman qurilish bo’yicha ham, ayrim obyektlar bo’yicha ham, qurilish boshlangan yildan e’tiboran o’sib boruvchi yakunlar bilan obyektlar ishga tushirilguniga qadar yoki tegishli ishlarning to’la-to’kis bajarilib, xarajatlarning hisobdan chiqarilgunigacha yuritiladi.


Odatda xo’jalik yurituvchi subyektlarda qurilish ishlarini bajarish ikki usulda amalga oshiriladi (1-rasm).

¹ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan



1-rasm. Qurilish ishlarini bajarish usullari

Qurilishning pudrat usulida qurilish ishlarining butun bosqichini qurilish pudrati shartnomasi tuziladigan pudrat tashkiloti bajaradi. Mazkur shartnoma pudratchi shartnomada belgilangan muddatda buyurtmachining topshirig'iga ko'ra muayyan obyektни qurish yoki boshqa qurilish ishini bajarish majburiyatini olishini, buyurtmachi esa pudratchiga ishni bajarish uchun zarur sharoitlarni yaratish, uni qabul qilish va kelishilgan narxni to'lash majburiyatini olishini nazarda tutadi. Qurilishning xo'jalik usuli quruvchining o'z kuchi bilan, pudrat tashkilotlari jalb etilmay bajariladigan qurilish-montaj ishlarini tashkil etish shaklidir. Ya'ni xo'jalik usulida qurilish-montaj ishlari buyurtmachisi va bajaruvchisi birgina yuridik shaxs hisoblanadi. Yangi qurilish, faoliyat yurituvchi obyektlarni kengaytirish, rekonstruksiya qilish, texnik jihatdan qayta qurollantirish va modernizatsiyalash xo'jalik usuli bilan amalga oshirilishi mumkin. O'zbekiston Respublikasi 21-son BHMSga muvofiq kapital qo'yilmalar bo'yicha xarajatlar quyidagi schyotlarda amalga oshiriladi (2-rasm):



2-rasm. Kapital qo'yilmalar schyotining tarkibi².

Kapital qo'yilmalarni hisobga oluvchi schyotlarning debetida asosiy vositalar obyektlarining boshlang'ich qiymatiga o'rnatilgan tartibda qo'shiladigan pudratchining barcha haqiqiy xarajatlari, shuningdek korxonaning asosiy vositalarni, nomoddiy aktivlarni xarid qilish, asosiy podani tashkil etish va boshqa kapital qo'yilmalar bilan bog'liq xarajatlari aks ettiriladi. Kapital qo'yilmalarni hisobga oluvchi schyotlar bo'yicha qoldiq, korxonaning tugallanmagan qurilishga, asosiy vositalar, nomoddiy aktivlarni xarid qilish, yerni va moliyaviy ijara shartnomasi bo'yicha olingan asosiy vositalarni obodonlashtirishga qilingan kapital qo'yilmalar miqdorini, shuningdek asosiy podani tashkil etish bo'yicha tugallanmagan xarajatlar summasini aks ettiradi. Kapital qo'yilmalarni hisobga

2 21-son BHMS "Xo'jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy-xo'jalik faoliyati buxgalteriya hisobi schyotlari rejasi va ularni qo'llash bo'yicha yo'riqnoma". <https://lex.uz/nsbu>



oluvchi schyotlar (0800) bo'yicha analitik hisob kapital qo'yilmalarning har bir yo'nalishi bo'yicha yuritiladi. Bunda analitik hisobning tashkil etilishi quyidagi xarajatlar haqida ma'lumot olish imkonini berishi lozim: qurilish va rekonstruksiya ishlari va boshqa kapital qo'yilmalar bo'yicha xarajatlar; asosiy vositalar va nomoddiy aktivlarni xarid qilish xarajatlari – asosiy vositalar va nomoddiy aktivlarning turlari va nomlari bo'yicha; yer va moliyaviy ijara shartnomasi bo'yicha olingan asosiy vositalarni obodonlashtirish xarajatlari – obyektlarning turi va nomi bo'yicha; asosiy podani tashkil etish xarajatlari – hayvonlarning turlari (yirik shoxli hayvonlar, qo'ylar, otlar va boshqalar) bo'yicha. Kapital qo'yilmalar, xususan kapital qurilish xarajatlari qurilishga ixtisoslashgan xo'jaliklarda 2010–“Asosiy ishlab chiqarish” schyoti boshqaruv hisobida hisobga olinsa, qurilishga ixtisoslashmagan boshqa sohalarida qurilish xarajatlari, 0800–“Kapital qo'yilmalar” sintetik schyotining 0810–“Tugallanmagan qurilish” schyotida moliyaviy hisobda olib boriladi.

1-jadval. Kapital qurilishda bajarilgan ishlar bo'yicha xarajatlarni buxgalteriya hisobida aks ettirilishi.

Xo'jalik operatsiyalari mazmuni	Schyotlar korrespondensiyasi					
	Debet			Kredit		
	Qurilish tashkiloti	Faoliyati qurilish bo'lmagan korxonalar		Qurilish tashkiloti	Faoliyati qurilish bo'lmagan korxonalar	
		Xo'jalik usulida	Pudrat usulida		Xo'jalik usulida	Pudrat usulida
Kapital qurilishda foydalanilayotgan asosiy vositalarga eskirish hisoblanishi	2010	2310	0810	0211-0290	0211-0290	0211-0290
Kapital qurilishga sarflangan material xarajatlari hisobdan chiqarilishi	2010	2310	0810	1010-1090	1010-1090	1010-1090
Yordamchi ishlab chiqarish xodimlari xizmatlarini qurilishlari tannarxiga o'tkazilishi	2010	2310	0810	2310	2310	2310
Umumishlab chiqarish xarajatlari qurilish tannarxiga o'tkazilishi	2010	2310	0810	2510	2510	2510
Tayyor mahsulotlarning qurilish ehtiyojlariga sarflanishi	2010	2310	0810	2810	2810	2810

Amaldagi buxgalteriya hisobining milliy standartlariga binoan qurilish ishlarining hisob-kitobi 0810–“Tugallanmagan qurilish” schyotida olib boriladi. Ushbu schyotda quyidagi xarajatlar aks ettiriladi:– qurilish ishlari bo'yicha xarajatlar;– asbob-uskunalarni montaj qilish xarajatlari;– montaj talab qilmaydigan asbob-uskunalarni sotib olish xarajatlari;– asbob-uskunalar va inventarlarga xarajatlar;– boshqa xarajatlar;– ishga tushirilgan, biroq hozircha qabul qilish dalolatnomalari tasdiqlanmagan obyektlar. Xo'jalik yurituvchi subyektlar, jumladan, agroklasterlarda tugallanmagan qurilish obyektlariga quyidagilarni kiritish mumkin:– qurilishi davom etayotgan obyektlar;– qurilishi vaqtincha to'xtatib qo'yilgan yoki umuman to'xtatilgan obyektlar. Toyloq tumani hududidagi mas'uliyati cheklangan jamiyat shaklidagi “PET AGRO OIL” qo'shma korxonasi hisob ma'lumotlariga ko'ra, 2022 yilda “New Building” MCHJ pudrat tashkiloti kuchi bilan sex qurgan. Buning uchun qurilish tashkiloti bilan pudrat shartnomasi tuzilgan bo'lib, ushbu shartnomaga ko'ra pudrat tashkiloti obyektni zarur materiallar bilan ta'minlashi, shuningdek ularning saqlanishi va qurilish obyektigacha tashilishini tashkil qilishi belgilangan. Buyurtmachining o'z omborida pudrat tashkilotiga berish majburiyatini olgan 345 000 ming so'mlik materiallar mavjud. Bu holda buyurtmachi materiallarni pudratchiga alohida oldi-sotdi shartnomasi bo'yicha sotgan. Pudratchi buyurtmachi-yetkazib beruvchiga to'langan QQS summasini hisobga kiritgan. Pudratchi uchun sexning umumiy smeta qiymati 300 000 ming so'm QQS solinadigan aylanma hisoblanadi. QQS summasi 45 000 ming so'mni tashkil etadi. Shu tariqa QQS bilan ishlar hajmi 345 000 ming so'mni tashkil etgan. MCHJ shaklidagi “PET AGRO OIL” qo'shma korxonasi asosiy vositalar obyektni 345 000 ming so'mlik qiymat bo'yicha kirim qilgan. Bunda buyurtmachida o'z qurilishi uchun materiallarni sotish savdo operatsiyasi sifatida qaralmaydi, undan olingan foyda esa boshqa daromad hisoblanib, unga umumbelgilangan tartibda soliq solinadi. Ushbu operatsiyalarni buxgalteriya hisobida aks ettirilishini quyidagi 2-jadvalda ko'ramiz.



2-jadval. “New Building” MCHJ pudrat tashkiloti tomonidan amalga oshirilgan ishlarning buxgalteriya hisobida aks ettirilishi³

№	Xo'jalik operatsiyalarining mazmuni	Summa, ming so'm	Hisobda aks ettirilishi	
			Debet	Kredit
1	“New Building” MCHJga materiallar sotildi	345 000	4010	9220
2	Sotilgan materiallar bo'yicha QQS hisoblandi	45 000	9220	6410
3	Materiallar hisobdan chiqarildi	300 000	9220	1050
4	“New Building” MCHJ dan sex qurilishi bo'yicha qarzidorlik aks ettirildi	345 000	0810	6010
5	“New Building” MCHJga qarzidorlik summalari to'lab berildi	345 000	6010	5110
6	Qurib bitkazilgan sex MCHJ shaklidagi “PET AGRO OIL” qo'shma korxonasi balansiga olindi	345 000	0120	0810

Buxgalteriya hisobida obyektlar qurilishi bo'yicha xarajatlar smeta hujjatlarida belgilangan xarajatlarning texnologik strukturasi bo'yicha guruhlanadi, 18-son “Kapital mablag' sarflashlar bo'yicha xarajatlar hisobini yuritish” nomli hamda 18/1-sonli “Tugallangan kapital mablag' sarflashlar bo'yicha xarajatlar” nomli qaydnomalarda yuritiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Kapital qo'yilmalar hisobini bozor tamoyillari asosida takomillashtirish faqatgina hisob ma'lumotlari doirasining mazmunini, maqsadga muvofiqligini, muddatini, buxgalteriya hisobini yuritish, kapital sarflarni boshqaruv hisobining obyektlarini aks ettirish usullarini kengaytirish asosida bo'lmasligi kerak, chunki ushbu holat hisob ishlarining hajmi ortishiga olib kelishi mumkin. Kapital qo'yilmalar buxgalteriya hisobi ishlab chiqarishning boshqaruv tizimida faqatgina boshqaruv obyektlari haqida ma'lumot berish manbai bo'lib qolmasdan, balki uning holati ustidan tezkor ravishda nazorat qilish vositasi ham hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, kapital qo'yilmalar boshqaruv hisobining obyekti sifatida o'rganilishi kerak. Chunki, moliyaviy hisob asosan qiymatliklarni hisobga oladi, kapital qo'yilmalar esa kelgusida iqtisodiy foyda keltiruvchi qiymatlik shakliga keltirilmagan aktivni yaratish uchun sarflangan xarajatlardan iboratdir. Ikkinchidan, kapital qo'yilmalar tugallanmagan jarayon ekanligini inobatga oladigan bo'lsak, bu xarajatlar moliyaviy hisobni emas, balki boshqaruv hisobining obyekti sifatida qaralishini taqozo qiladi. Demak, qayerda hisob obyekti to'g'ri belgilab olinsa, o'sha joyda tahlil va nazorat aniq ham talab darajasida bo'ladi, hamda hisobni tahliliy va nazorat xususiyati ortadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Bobojonov A., Jumaniyozov K. Moliyaviy hisob. – T.: “Moliya” nashriyoti, 2002. – 672 b.
2. G'ozibekov D. G', Sobirov O. Sh., Mo'minov A. G. Lizing munosabatlari nazariyasi va amaliyoti. – T.: Fan va texnologiya, 2004. – 308 b.
3. Karimov A. A., Kurbanbayev J. E., Jumanazarov S. A. Buxgalteriya hisobi. Darslik. – T.: “Iqtisod-Moliya”, 2019. – 624 b.
4. Paliy V. F. Teoriya bukhgalterskogo ucheta: sovremennye problemy. – M.: INFRA-M, 2007. – 512 s. ISBN (EAN): 5-85428-177-5
5. Sotivoldiyev A. S., Itkin Yu. M. Zamonaviy buxgalteriya hisobi. 2-tom – T.: O'zbekiston BAMA nashr, 2002. – 122 b.
6. Ixtiyorovich Q. L. A., Shavkat o'g'li I. R., Tashmurotovich E. U. B. (2023). Xarajatlar hisobida qo'llaniladigan atamalar mohiyati tahlili va ularni tizimlashtirish. MASTERS, 1(1), 127–131.
7. Olimjonovna J. R. D., Tashmurotovich E. U. B. (2023). Agroklastarlarda kapital sarflar hisobini tashkil etishning nazariy asoslari. MASTERS, 1(1), 112–118.
8. <https://lex.uz/nsbu>

3 Mas'uliyati cheklangan jamiyat shaklidagi “PET AGRO OIL” qo'shma korxonasi hisob ma'lumotlari asosida muallif hisob-kitobi



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. aprel. maxsus son / № 5

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
